# OILADA OTA-ONA VA FARZANDLAR O’RTASIDAGI NIZOLAR

**Davurova Go`zal Akbarovna –JDPI o`qituvchisi**

**Baratova O’g’iloy Komil qizi- JDPI talabasi**

**Anatatsiya:** ushbu maqolada oilaviy munosabatlar, ota-onaning farzand bilan bo`lgan munosabatlarida nizolar va ularni oldini olish hamda ularni bartaraf etishga oid fikr mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so`zlar:** oila, ota-ona, farzand, nizo, oilaviy munosabatlar, oilaviy nizolar.

Oila–jamiyatning kichik bo’g’ini. Oilaning tinchligi, farovonligi yurtning porloq kelajagining poydevoridir. Yurtimizda oilaning mustahkamligiga uning osoyishtaligiga katta e’tibor berilmoqda. Oila jamiyatning kichik ammo juda muhim yacheykasi bo’lib ,uning tinchligini taminlash to’g’risida yurtimizda qator chora tadbirlar ko’rilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev o’z nutqida oila to’g’risida quyidagi fikirlarni bildiradi: “bolaning tarbiyasi va uning yetuk shaxs sifatida shakillanishida oilaning roli nihoyatda kattadir.Oilada bolaning aqliy faoliyati kamol topadi,dunyoqarashi,tafakkuri shakillanadi,kishilarga nisbatan mehr–oqibat hissi tarbiyalanadi.bolaning bilimi, qobilyati va malakalarining shakillanishi aynan oil ava oilaviy tarbiyaga bog’liqdir”. Ushbu fikirlar jamiyatimizda farzand tarbiyasida oilaning o’rni naqadar muhim ekanligidan dalolat beradi. Darhaqiqat bola tarbiyasida ,uning yetuk bo’lib kamol topishida oilaning ,ota-onaning o’rni benihoyat kattadir. Bugungi kunda yoshlar o’rtasidagi kuzatilayotgan jinoyatlar va qonunbuzarliklarning kelib chiqishiga sabab sifatida oilaviy muhitning yaxshimasligi va ota-ona va farzand munosabatlarining to'g’ri yo’lga qo’yilmaganligini ko’rsatishimiz mumkin. Hayotimiz ota-ona va farzandlar o’rtasida turli ziddiyatlar va tortishuvlarning guvohi bo’lamiz,ko’pchligimizga bu oddiy holdek tuyuladi. Ammo bundey kichik tortishuvlar borib-borib katta nizolarning kelib chiqishiga sabab bo’lishi mumkin. Oiladagi nizolarning oldini olish va bartaraf etish yo’li sifatida eng avvalo oilaviy munosabatlarga e’tibor qaratish muhim hisoblanadi. Oila va farzand tarbiyasi va oilaviy munosabatlar to’g’risida ko’plab buyuk allomalarimiz o’z fifkirlarini bildirib o’tishgan. Abu Nasr Farobiy o’z asarlarida keltirilishicha oila a’zolarining bir-biriga samimiy munosabatlari, mehr-u oqibatlari shu oiladagi odamlarning baxtini tashkil qiladi. Darhaqiqat oilaviy munosabatlarda ayniqsa ota-ona va farzand o’rtasida samimiy munossabatlarning shakillanmaganligi,ular o’rtasida turli tushunmovchiliklar , va ziddiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo’ladi. Ayniqsa o’smir yoshidagi bolalar ota–onasi bilan tez-tez ziddiyatga borishi va ulardan norozi kayfiyatda yurushi kuzatiladi. Bunday vaziyatlarda ota–ona iloji boricha farzandi bilan ochiq va samimiy munosabatlarni yo’lga qo’yishi ,ko’plab muammolarning yechimi hisoblanadi. Buyuk mutafakkir bobomiz, yuksak qalam sohibi Alisher Navoiy

o’zining ko’plab asarlarida oila va oilaviy munosabatlar haqida o’zining ko’plab qarashlarini bayon qilgan. Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e’tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo’lib o’sishiga ishonadi. Tarbiya insonga o’zida yaxshi odat va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi.U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir-birlariga bo’lgan ruhiy ma’naviy ta’sirlari natijasida tarkib topadi deb, voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligini uqtiradi. Buyuk allomamiz Jaloliddin Davoniy ham o’z asarlarida oila va farzand tarbiyasi to’g’risida ko’plab fikirlarini bildirgan. U ota-onaning bolani tarbiyalashdagi axamiyatiga keng to’xtalgan. Uning fikricha oila tarbiyasida ota ham ona ham teng huquqli,teng ishtirok etishi bolaning yaxshi xulq-odob qoidalarini va muayyan bir kasbni egallashiga ko’maklashadi. Farzand tarbiyasida otaning ham onaning ham o’rni katta bo’lib, agarda biror tarafning masuliyatsizligi bola tarbiyasida og’ishishlarning kelib chiqishiga sabab bo’ladi. Ibn Sino o’z asarlarida bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikirlarni bildirgan. Ibn Sino bolada axloqiy tarbiyani, aqliy, jismoniy va mehnat tarbiyasi bilan birgalikda shakillantirish, uni komil inson qilib tarbiyalashda asosiy omil deb biladi. Undan tashqari u bola tarbiyasida qattiq tana jazosidan ko’ra,shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash maqulligini uqtirgan. Aksariyat ota-onalar farzandlariga dakki berish orqali xatolarini anglatmoqchi, tarbiyalamoqchi bo’ladi. Bu usul ko’pincha bolalarda ota–onaga nisbatan norozilik hissining paydo bo’lishiga olib keladi. Ota–ona va farzand o’rtasida munosabatlarning to’g’ri yo’lga qo’yilmasligi,farzandning ota-onasini aldashiga, uzoqlashishiga oilb kelishi mumkin. Ular o’rtasidagi munosabatlarning iliq va samimiyligi farzand tarbiyasida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ota-ona va farzand o’rtasidagi nizolarning aksariyati ularning xohish –istaklarining mos tushmasligidan kelib chiqishi mumkin. Ota-onaning bola bilan ko’proq suhbatashishi va fikir almashishi, tinglashi ular o’rtasidagi ko’pgina konflektlarning kelib chiqishining oldini oladi. Psixolog olim V.I.Selivanov oilada shaxsni shakillantrish jarayonini o’rganib, baxtli bolalik-bu oiladagi quvonchni, xamjixatlikni hamda ota-onalarning bolalariga g’amxo’rligining samarasidir degan xulosaga keladi. Oiladagi munosabatlarning buzulishi, bolaning psixalogik rivojlanishiga o’z tasirini o’tkazadi. Bolaning sog’lom oila muhitda ulg’ayishi va munodsabatlardagi erkinlik uning kelajakda jamiyatga tezroq ishtimoiylashishiga va yaxshi moslashishiga yordam beradi. Shu o’rinda takidlash joizki oilaviy sog’lom muhitni shakillantirish, oilaviy iliq munosabatlarni yaratishda ayol kishining o’rni katta hisoblanadi. G’arb mamlakatlarida o’tkazilgan tadqiqotlarda ko’pchilik ayollarda onalik ustanovkasining yo’qligi,oilaviy munosabatlarning buzulishiga,bola tarbiyasinig og’ishishiga va ajrimlarga sabab sifatida ko’rsatilgan. Ota-ona farzandini yaxshi tarbiyalash uchun avvalo o’zlari tarbiyalangan bo’lishi lozim. Ushbu xulosalarga asoslanib quyidagi tavfsiyalarni ishlab chiqdik:

-eng avvalo ota-ona farzandlari bilan samimiy va ochiq munosabatni shakillantirishi lozim.

-farzandlari bilan doimiy muloqot olib borish va hamfikir bo'lish,ota-ona va farzand o'rtasida tushunmovchiliklarning yuzaga kelishining oldini oladi.

-tabiat qo'yniga tez-tez oilaviy sayohatlarning tashkil qilinishi,oilaviy salomatlikni saqlash va munosabatlarning yaqinlashishiga oilb keladi.

-oila a'zolarining birga bir dasturxon atrofida yig'ilishi ,oilaviy birdamlikni va hamjixatlik ruhini shakillantiradi.

-oilada bolaning fikri va qiziqishlarini tinglash va maslahatgo'y bo'lish, bolada ota-onaga nisbatan norozi kayfiyatning paydo bo'lishining oldini oladi.

-oilaviy muammolar yechimi oiladagi sog'lom psixologik muxit yaratilishiga bog'liq.

-bolaning vaqtini to'g'ri taqsimlash va kitobga oshno qilish,bola dunyoqarashini o'stiradi

Ushbu tavsiyalar oilaviy munosabatlarni yaxshilaydi va mustaxkamligini ta'minlaydi. Zero, oila tinchligi va osoyishtaligi jamiyat taraqqiyotining birlamchi omili hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:


1. I.A.Karimov.Yuksak manaviyat yengilmas kuch.Toshkent.2008.
2. Karimov V.M."Oilaviy hayot psixalogiyasi".Toshkent.2006 yil.137b.
3. SHoumarov G'.B. tahriri ostida ."Oila psixalogiyasi".T:sharq. 2000.
4. Davurova, G. (2020). Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda psixologik xizmatni tashkil etish. Архив Научных Публикаций JSPI.
5. Davurova, G. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЕ. Архив Научных Публикаций JSPI.
6. Davurova, G. (2020). Komil inson masalasining psixologiyada tadqiq etilishi. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Rasulova, D. (2020). YOSH OTA-ONALARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK BILIMLARINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. Архив Научных Публикаций JSPI.
8. Davurova, G. (2020). O'ZLASHTIRISHI QIYIN BO'LGAN KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).
9. Xamrayeva, N. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЯ. Архив Научных Публикаций JSPI.
10. Davurova, G. (2020). O'ZLASHTIRISHI QIYIN BO'LGAN KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).
11. Qayumov, A. (2020). SYSTEM-TECHNOLOGICAL APPROACH TO SPIRITUAL AND AESTHETIC EDUCATION IN THE STUDY OF PEDAGOGICAL DISCIPLINES. Архив Научных Публикаций JSPI.

12. Qayumov, A. (2020). ДУХОВНО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. Архив Научных Публикаций JSPI.
13. Rasulova, D. (2020). QIZLARNI SOG'LOM TURMUSH TARZI ASOSIDA TARBIYALASHNING AHAMIYATI. Архив Научных Публикаций JSPI.
14. Uktamovich, R. B., & Rakhmatullaevna, R. D. (2019). FEATURES OF STUDYING THE LEVEL OF PSYCHOLOGICAL READINESS OF A SEVEN-YEAR-OLD CHILD'S ADAPTATION TO SCHOOL. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
15. Davurova, G. (2020). Yosh ota-onalarining pedagogik-psixologik bilimlarini oshirishning ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI.
16. Расулова, Д. (2020). Психологическая диагностика личностных и эмоциональных аспектов суицидального поведения подростка. Архив Научных Публикаций JSPI.
17. Каршибаева, Г. А., Расулов, Б. У., Расулова, Д. Р., & Эшмуратов, О. Э. (2018). Психологическая диагностика личностных и эмоциональных аспектов суицидального поведения подростка. Образование и воспитание, (2), 72-73.
18. Rasulova, D. (2020). САМАРАЛИ ТАЪЛИМ-ИЖОДИЙ ЁНДАШУВ МАҲСУЛИ. Архив Научных Публикаций JSPI.
19. Uktamova, U., & Berdiyorova, S. (2020). THE ROLE OF COMMUNICATION IN PEOPLE'S RELATIONSHIPS AND WAYS OF LEARNING TO COMMUNICATE. Архив Научных Публикаций JSPI.
20. Uktamova, U. (2020). KICHIK MAKTAB YOSHIDA QOBILIYATNING PSIXOLOGIK TAVSIFI. Архив Научных Публикаций JSPI.
21. Uktamova, U. (2020). Ў?увчиларга маънавий-ахло?ий тарбия бериш ор?али экологик маданиятини шакллантириш. Архив Научных Публикаций JSPI.
22. Berdiyorova, S., & Uktamova, U. (2020). РОЛЬ ОБЩЕНИЯ ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ ЛЮДЕЙ И СПОСОБЫ ОБУЧЕНИЯ К ОБЩЕНИЮ. Архив Научных Публикаций JSPI.
23. Uktamova, U. (2020). АГРЕССИВНОЕ ПОВЕДЕНИЕ НА РАЗВИТИЕ ВЗГЛЯДОВ ДЕВУШЕК. EurasianUnionScientists, 1(10 (79)), 45-47.
24. Uktamova, U. (2020). ОИЛАВИЙ ЗЎРАВОНЛИКНИНГ КЕЛИБ ЧИ?ИШ САБАБЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).
25. Сунатуллаевна УУ (2021 г., январь). ТАЛАБА КИЗЛАРДА ТАЗЫИК ВА ТАДЖОВУЗГА КАРШИ ДУНЁКАРАШНИ ШАКЛЛАНТИШ. В евро-азиатских конференциях (Том 1, № 1, стр. 504-508).
26. Уктамова, У. (2020). ЁШЛАР ФАОЛИЯТИНИ БУНЁДКОР ?ОЯЛАР БИЛАН БАНД ?ИЛИШ МУАММОСИ. Архив Научных Публикаций JSPI .
27. Rahmatova, F. (2020). THE WAYS OF UTILIZING PROBLEMATIC STUDY IN ENHANCING THE MATHEMATICAL MINDOF THE UPCOMING PRIMARY EDUCATION TEACHERS. Архив Научных Публикаций JSPI.
28. Rahmatova, F. (2021). Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг математик тафаккурини ривожлантиришда интерфаол таълим методларидан фойдаланиш. Журнал инновации в начальном образовании, 2(3).

29. Rahmatova, F. (2020). METIIODS OF INNOVATION TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATION. Архив Научных Публикаций JSPI.
30. Rahmatova, F. (2020). Main Features of Mathematical Subjects at Primary Schools. Архив Научных Публикаций JSPI.
31. Rahmatova, F. (2020). FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS IMPROVING MATHEMATICAL THINKING. Архив Научных Публикаций JSPI.
32. Rahmatova, F. (2020). ТАЛАБАЛАРНИНГ МАТЕМАТИК ТАФАККУРИНИ ЮКСАЛТИРИШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ИМКОНИЯТЛАРИ. Архив Научных Публикаций JSPI.
33. Rahmatova, F. (2020). РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ УМЕНИЙ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКИ ПОСРЕДСТВОМ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ. Архив Научных Публикаций JSPI.
34. Rahmatova, F. (2020). Математика фанини ўқитишнинг дидактик таъминоти. Архив Научных Публикаций JSPI.
35. Rahmatova, F. (2020). Математик тафаккурни такомиллаштиришда матнли масалалардан фойдаланишда узлуксизлик тамойилининг аҳамияти. Архив Научных Публикаций JSPI.
36. Rahmatova, F. (2020). СОЗДАНИЕ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ ОБЛАСТИ ТВОРЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ. Архив Научных Публикаций JSPI.
37. Rahmatova, F. (2020). Талабаларда математик тафаккурни шакллантириш омиллари. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-6.
38. Rahmatova, F. (2021). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarning ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish yunalishi bo'yicha faoliyat. Журнал инновации в начальном образовании, 2(3).
39. Rahmatova, F. (2021). O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi. Журнал инновации в начальном образовании, 2(3).
40. Rahmatova, F. (2021). The Formation Of Research Competencies Of Future Primary School Teachers. Журнал инновации в начальном образовании, 1(Архив№ 2).
41. Rahmatova, F., & Abrorxonova, K. (2021). Educational issues in the works of enlightened intellectuals. Журнал инновации в начальном образовании, 1(Архив№ 2).
42. Rahmatova, F. (2020). БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ. Журнал инновации в начальном образовании.
43. Khaliqnazarovna, A. N. (2019). FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY OF PRESCHOOL CHILDREN. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).